

# Stages of Development of Technical Science

*Karimov Islombek Ravshan oglu<sup>1</sup>*

**Annotation:** The occurrence of the modern science and technology revolution and the production of modern manufacturing enterprises and equipment today are primarily related to science, which is the core of this industry. We can say that technical science is the core of these industries and science and technology. This article provides information on the stages of development of technical science and the areas in which science is developing at a high level today. The author's conclusions and recommendations on the development of science are also given.

**Key words:** steam engine, STR (science and technology revolution), manufacturing, theology and scholasticism, gunpowder, compass.

**Fan-texnika taraqqiyoti** - fan bilan texnikaning o'zaro bog'liq, yagona, ilgarilab boruvchi taraqqiyoti; ijtimoiy taraqqiyot asosi. Dastlab fan rivoji bilan texnika taraqqiyoti o'rtasidagi yaqinlashuv 16—18-asrlarda manufakturna ishlab chiqarishi bilan bog'liq holda sodir bo'ldi. Bungacha moddiy ishlab chiqarish empirik tajribalar, hunarmandlik asosida shakllangan. Teologiya va sxolastika ta'siridagi tabiat haqidagi ilmiy nazariy bilimlar ham ishlab chiqarishga xech qanday salbiy ta'sir qilmasdan sekinlik bilan rivojlangan. Ilmiy va texnikaviy taraqqiyot inson faoliyatining 2 ta nisbatan mustaqil yo'naliishi sifatida yuksala borgan hamda 16-asrda savdo-sotiq va yirik manufakturadagi tub o'zgarishlar bir qancha aniq vazifalarni nazariy-eksperimental hal qilishni talab qildi. Bu davrda fan Uyg'onish davri g'oyalari ta'sirida sxolastika an'analarini parchalab, amaliyotga murojaat qildi. Kompas, porox va kitob nashr qilish ilmiy texnikaviy faoliyatga asos solgan 3 ta yirik kashfiyot bo'ldi. Suv tegrimonlarining rivojlanayotgan manufakturna ishlab chiqarishida qo'llanilishi ba'zi mexanik jarayonlarni nazariy tadqiq etishni talab qildi. Natijada charxpalak g'ildiragi, charxpalak harakati nazariyasi, qarshilik va ishqalanish ta'lomitlari yaratildi. Fan bilan texnika yaqinlashuvining 2-bosqichi mashina ishlab chiqarishning 18-asr oxiridan boshlab taraqqiy etishi bilan bog'liq bo'lib, bunda fan bilan texnika bir-birining jadal rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda texnika fani faoliyatida nazariy masalalarni hayotga tatbiq qilishga da'vat etuvchi fanning maxsus bo'g'indan paydo bo'ldi: amaliy tadqiqotlar, ishlab chiqarish tadqiqotlari, amaliy konstruktiv ishlanmalar va hokazolar. Fan-texnika taraqqiyotining 3-bosqichi fan texnika inqilobi bilan bog'liq desak bo'ladi sababi aynan ushbu davrda fanning rivojlanishi kengaydi va o'ziga boshqa ko'plab tarmoqlarni jalb qilish orqali kompleks rivojlnana bordi. Uning ta'sirida texnika taraqqiyotiga qaratilgan ilmiy sohalar kengayadi. Texnik masalalarni hal qilishda biologlar, fiziologlar, psixologlar, mantiqshunoslar ishtirok etadi. Fan-texnika taraqqiyoti, shuningdek, ijtimoiy fanlar yo'naliishlari, iqtisod va ishlab chiqarishni tashkil qilish, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni ilmiy boshqarish, aniq ijtimoiy tadqiqotlar kabilarga bilvosita ta'sir qiladi. Fanning texnikaga nisbatan yetakchilik mavqeい yanada yorqin namoyon bo'ladi, fan texnikani uzlusiz inqiloblashtiruvchi kuchga aylanadi. O'z navbatida, texnika ham fan taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, uning oldiga yangi talab va vazifalar qo'yadi. Hozirgi zamон fan texnika inqilobining xarakterli xususiyati uning sanoat bilan birga ijtimoiy hayotning turli sohalar: qishloq xo'jaligi, transport, aloqa, tibbiyot, ta'lim, maishiy xizmat kabilarni qamrab olganligidadir. Yurtimizda ham bu fanning rivojlanishi va kengayishi eng birinchi qadam O'zbekiston mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq yuksak malakali va yangicha dunyoqarashga ega bo'lgan milliy kadrlarni tayyorlash, hayotimizda muhim ahamiyatga ega bo'lgan masalalar qatorida ta'lum- tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamон talablari darajasiga ko'tarish, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish dolzarb masala bo'lib qoldi. To'g'ri ko'pchilikda savol tug'ilishi mumkin O'zbekistonda fan texnikaning rivojlanishi shakllanishi mustaqillikdan oldin bo'lganku deb, shunday bo'lsada uning fanning mustaqil O'zbekistonda yangidan tarkib topishi va rivojlanib borishini aytish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni yanada chuqurlashtirish jarayonida hamda ta'lum tizimini o'rganish asosida mamlakatimiz iqtisodiyotida erishilgan yutuqlarni atroflicha tahlil etish, mayjud muammo va kamchiliklarni batamom bartaraf etish hamda iqtisodiyotni rivojlantirish usullarini ilg'or horijiy tajribalardan samarali foydalanish orqali ta'lum tizimini yanada takomillashtirish masalalari ilgari suriladi. Bunda asosiy e'tibor jahon integratsiyalashuvi jarayonini jadal sur'atlarda rivojlantirish, buning uchun mamlakatimiz tashqi iqtisodiy faoliyatini erkinlashtirish borasida kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratiladi. Hozirgi kunda innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborotlar texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan – kunga kuchayib bormoqda. Fan texnikaning yurtimizda rivojlanib borishi natijasida juda ko'plam yangiliklar va innovatsiyalar yaratilmoqda. Bularning barchasi texnikaning rivojlanishidan dalolat beradi. Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida 2019–2021 yillarga mo'ljallangan amaliy ilmiy-texnik loyihibar va innovatsion ishlanmalar iqtisodiyot tarmoq va sohalarini innovatsion rivojlantirishning ustuvor yo'naliishlari va vazifalaridan kelib chiqib, xorijiy tajribalarni e'tiborga olgan holda bosqichma-bosqich shakllantirilib, grantlar doimiy ravishda e'lon qilinmoqda. Jumladan, 2018 yilda jami 1748 ta loyiha 193,4 mlrd so'm miqdorida moliyalashtirilib, shunday amaliy loyihibar tegishliligi bo'yicha 912 ta va 114,5 mlrd, fundamental loyihibar 369 ta va 38,2 mlrd, innovatsion loyihibar 285 ta va 32,9 mlrd, yosh olimlarning amaliy loyihibarları – 165 ta va 6,3 mlrd, xalqaro ilmiy-texnik loyihibar esa – 17 ta va 1,3 mlrd so'mni tashkil etadi. Ushbu loyihibalarning natijaviyligi yuzasidan doimiy monitoring olib borilmoqda. Mustaqil O'zbekistonda fan taraqqiyotiga katta ahamiyat berildi, chunki xar tomonlama yutuqqa erishilmasa, davlatning kelajagi bo'lmaydi. SHuni e'tiborga olib, Respublikada ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish, tadqiqotlarning natijasini xayotning turli jabxalarida tadbiq qilish borasida katta ishlar olib

<sup>1</sup> Student of Urgench State University

borishmoqda 1992 yil O`zbekiston Respublikasi Davlat Fan va texnika komitetini tashkil etish to`g`risida farmon e`lon qilindi 1993 yil Respublika Vazirlar Mahkamasining «O`zbekiston Respublikasi Davlat ilmiy texnika siyosatining ustuvor yo`nalishlari to`g`risida» gi qarori bilan Respublika Davlat ilmiy-texnika siyosatining yangi istiqbolga mo`ljallangan asosiy yo`nalishlarini belgilab bordi. Bu ustuvor yo`nalishlarga davlat fundamental tadqiqotlar dasturlari, Davlat ilmiy texnika dasturlari, tanlovlvi ilmiy-texnika loyihalari va innovatsiya dasturlari doirasida hal qilindi. Mamlakatni jadal rivojlantirish borasida dasturiy vazifalarni amalga oshirishda fanni va infrastrukturani rivojlantirish g`oyat muhim ahamiyatga ega. Fan intellektual saloxiyatni yaratdi. Bu innovatsion kashfiyotlar, imkoniyatlari bilan iqtisodiyotimizga xizmat qilmoqda. Respublikamizning ilmiy tadqiqot majmui akademiya, oliy uquv yurtlari va tarmoq yo`nalishidagi 362 muassasani, shu jumladan 101 ilmiy tadqiqot institutini, oliy o`quv yurtlaridagi 55 ilmiy tadqiqot bo`linmalarini, 65 loyiha konstruktoriya tashkilotini, 32 ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi va tajriba korxonalarini, 30 ta axborot xisoblash markazini o`z ichiga oladi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 avgustdagi PQ-3899-sonli qarori bilan Innovatsion rivojlanish vazirligi huzurida Ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat natijalarini tijoratlashtirish Prezident jamg`armasi tuzildi. Ilmiy va ilmiy-texnik ishlanmalarni o`rganish va tijoratlashtirishning normativ-huquqiy bazasini yaratish maqsadida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 iyuldagli PQ-3855-son qaroriga muvofiq tasdiqlangan 43 ta ishlanmaning tijoratlashtirilishi bilan bog`liq barcha masalalarga Fanlar Akademiyasining 15 ta ilmiy tekshirish institutlari va 6 ta tijorat banklari jalb etildi. Tasdiqlangan «Yo`l xaritasi»ga muvofiq 18 ta loyiha bo`yicha innovatsion kompaniyalar ochildi, 9 ta loyiha bo`yicha litsenziya shartnomasi imzolandi. Hozirgi kunda changtutgich loyihasi Navoiy tog`-kon metallurgiya kombinati mablag`lari hisobidan tijoratlashtirilib, dastlabki ikki bosqichi yakuniga yetdi.

Qoraqlapoq tabiiy fanlar ilmiy-tadqiqot instituti texnologiyasi asosida «Barxan qumi va ohak asosida silikat g`isht ishlab chiqarish» loyihasini amalga oshirish uchun ustav kapitali 400 mln so`mdan iborat «Silikat Barxan» MChJ tashkil etildi. Ushbu loyiha qiymati 18,49 mldr so`m bo`lib, uning katta yutug`i shundaki, Qoraqlopg`iston Respublikasi hududidagi juda katta miqdorda mayjud barxan qumidan xomashyo sifatida foydalaniladi. Mahsulot ishlab chiqarish jarayonida tabiiy gazdan foydalanilmaydi, shu bilan bir qatorda mahsulot yuqori darajadagi ekologik zararsizdir. Bundan tashqari, O`zbekiston hududidagi seysmik xavfni baholash dasturi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan tijoratlashtirildi. O`simlik moddalar kimyosi instituti va «Nikofarm» MChJ o`rtasida farmatsevtika sohasiga oid «Flanorin» va «Ferulen» substantsiyalarini ishlab chiqarish bo`yicha litsenziya shartnomasi imzolanib, ushbu loyihalarni tijoratlashtirish natijasida 440 mln so`mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Fanlar akademiyasi «Fizika-Quyosh» ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasining fizika-texnika instituti hamda Isroil davlatining 6 ta kompaniyasi va Innovatsion rivojlanish vazirligi o`rtasida imzolangan o`zaro anglashuv memorandumiga muvofiq 25 oktyabr kuni TSM (Technology Systems Management) kompaniyasi tashkil etildi. Bu yuqorida ma`lumotlardan ko`rinib turibdiki texnika fani rivojlanib yuksalib bormoqda. Bugungi kunda texnika fanining rivojlanishida AvtoCad, ArcGIS va 3D Max hamda boshqa ko`plab dasturlarning ham hissasi katta. Bularni natijasida ko`plab malakali qadrlar yaratish imkoniyati mavjид desak maqsadiga muvofiq.

### Xulosa

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki jamiyat taraqqiyotini ilm-fan, texniknika rivojisiz tasavvur etib bo`lmaydi, shu ma`noda dunyoning barcha mamlakatlarida ilm-fanga aloxida e`tibor qaratiladi. Shunisi e`tiborlik, ilm-fan ijtimoiy asoslarda yoki davlat tarkibiy tuzilmalarida amalga oshirilmasin, u davlat ahamiyatiga ega bo`ladi. O`tmishda ham olimlar, ijod ahli faoliyat davlat rahbarlari tomonidan qo`llab-quvvatlangan. Bizning zamonimizga kelib, u aksariyat davlatlarda xalq xo`jaligining ajralmas sohasiga aylangan va u davlat tomonidan mablag` bilan ta`minlanadi hamda uning ijrosi nazorat qilinadi. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagи umumiy o`rta ta`lim to`g`risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi hamda 2017 yil 6 apreldagi “Umumiy o`rta va o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limining davlat ta`lim standartlarini tasdiqlash to`g`risida”gi qarorlari o`qitish tizimini yangi bosqichga ko`tarishga imkon yaratadi. Umumta`lim tizimida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlanirish bo`yicha Harakatlar strategiyasining ijtimoiy soha rivojiga doir tegishli yo`nalishida ta`lim bo`yicha ustuvor vazifalar belgilandi. Shu o`rinda o`quvchilarni kasb-hunarni to`g`ri tanlashga yo`naltirish maqsadida “Mehnat ta`limi” fani ham “Texnologiya” fani deb o`zgartirildi va bugungi kun talabidan kelib chiqib, ko`p tarmoqli yo`nalishlarga asoslangan holda qayta ishlandi. “Mehnat ta`limi” fanining “Texnologiya” fani deb o`zgartirilishi ushbu fan sohasini yanada boyitish, uni texnologiyalashtirish, ya`ni fanga innovatsion texnologiyalarni olib kirish, innovatsion faoliyatni yaratish, mahsulorlikni oshirish kabi jadal suratlarni ro`yobga chiqarish, shu bilan birga fanni takomillashgangan qirralarini ochish kabi bir qancha vazifalardan iboratdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aripov M., Begalov B., Begimqulov U., Mamarajabov M. Axborot texnologiyalari. O`quv qo`llanma - T.: «Noshir», 2009.-368 b.
2. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz T.: O`zbekiston. 2017y
3. Xaydarov M.T. Ashurova D.S. «Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni prognozlashtirish» - - T.: TDIU, 2007 yil- 185 bet.
4. N.M.Maxmudov, M.T.Asqarova, I.Yu.Umarov. Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash. Darslik. - T.: «Fan va texnologiya», 2014, 234 b
5. M. Haydarov, M. Kalanova. «Makroiqtisodiy tahlil» o`quv qo`llanma- T.: 2004-yil, 125-bet.
6. Otamurodov S. Globallashuv va millat. -T: Yangi asr avlod. 2008. 201 b.